



FAXRIDDIN ROZIY SHAXSIYATI VA ILMIY MEROSI

Muzaffarov Firuz Davronovich

BuxDU professori

Falsafa fanlari doktorii (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11025597>

Annotatsiya: Mazkur maqola mashhur kalom olimi va diniy falsafa mutafakkirlaridan biri Ar-Roziyning falsafiy qarashlariga bag'ishlanib, undan keyingi olimlarga katta ta'sir ko'rsatganligi va hozirgi davrdagi ilmiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: fazl, ilm, sharaf, kitob, karomiya, mujaddid, faqih, malik muazzom, axloq, nafs

Ibn Xatib ar-Ray nomi bilan mashhur Imom Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn al-Husayn ar-Roziy (hijriy 606-yilda vafot etgan) oltinchi asr o'rtalarida fazl, ilm va sharaf uyida tug'ildi, Jarulloh (Alloh taoloning qo'shnisi) nomiga yetgunigacha otasi Ziyovuddin Umar Xatib ar-Rayning oldida arab tili, tafsir, hadis va fiqh ilmlari bo'yicha keng tarqalgan kitoblarni o'qidi, Kamol Simnoniy huzuriga jo'nab, u yerda bir muddat ta'lim oldi. So'ng Rayga qaytib, Majdiddin Jiliyning oldiga bordi va u yerda kalom va hikmat ilmini o'rgandi. Ikki masjid imomining kalom ilmi haqidagi "Ash-Shomil" kitobini yod oldi va ilmda mohir bo'ldi. Alloh taolo unga o'z davridagi odamlardan ustun bo'lgan ilm ato etdi va uni tengdoshlari va o'ziga o'xshaganlardan ustun qildi. Uning zikri tarqaldi, shon-shuhrati yoyilib, katta obro'ga ega bo'ldi. Xorazm, Xuroson va Movarounnahrda u va mu'taziliylar (Islomda adashgan firqalar) orasida, Hirot va Ray shaharlarida esa u va karomiya va botiniylar (aqidasi buzuq toifalar) orasida munozaralar bo'lib o'tgan va o'zaro fikrlar almashishgan.

U tez-tez safar qilgan, shohlar oldiga borgan, umrining boshlarida qo'li kalta ya'ni kambag'al edi, unda na boylik, na xotirjamlik bor edi. So'ng Xorazmshoh Sulton Alovuddin Muhammad ibn Takshga murojaat qildi va uning qo'llab-quvvatloviga, katta martabalarga noil bo'ldi. O'tmishdoshlari-miz "Faxriddin Roziy bu asrning (VI-asr) mujaddidi edi" deyishadi, shuningdek, Suyutiy o'zining "Arjuza" asarida: "Oltinchisi-imom Faxriddin Roziy va Rofe'iy. Rofe'iy – shofeiy mazhabining faqihi edi, shuning uchun uni ko'plab ilmlarga hissa qo'shgan Roziy bilan solishtirib bo'lmaydi. U juda ilmiy edi - bu davrda ash'ariy larning eng ko'zga ko'ringan imomi bo'lib, ularning mazhabi boshqalarnikidan ustun edi", deydi.

Imom ar-Roziy fiqh, hikmat, tafsir va adabiyotga oid ikki yuzdan ortiq asar yozgan va uning barcha kitoblari maroqli. Uning yozgan asarlari butun



mamlakat bo'ylab tarqaldi va katta talabga ega bo'ldi. Odamlar bu kitoblar bilan mashg'ul bo'lib, eski kitoblarga e'tibor bermay qo'yidilar. Imom fiqh, kalom, hikmat va usul ilmida eski olimlardan g'olib keldi, Shayx ar-Rais Abu Ali ibn Sinoga raddiyalar berdi va asarlaridagi xatolarini tuzatdi. U va'z qilishda zo'r mahorat egasi edi. Ikki tilda – arab va fors tillarida va'z qilardi. Va'z qilayotganida to'liqlanib ketar va ko'p yig'lardi. Uning ma'ruzalariga Hirot shahridan mazhabboshilar kelib, bilmaganlarini so'raganlarida u eng yaxshi javoblarni aytardi. U sababli ko'plab karomiya mazhabidagilar va boshqa ko'p odamlar sunniy aqidasiqa qaytishdi. U Hirotida "Shayxulislom" nomini oldi va ko'pgina bo'htonchi karomiyalardan ustun bo'ldi. Ular imomni katta gunohlarda ayblashar, unga nomaqbul so'zlar bilan nisbat berishardi. Shulardan biri: "Muhammad Toziy" deb Nabiy sollallohu alayhi va sallamni nazarda tutib hamda "Muhammad Roziy" deb imomning o'zini nazarda tutib gapirganlar.

Sibt ibn Javziyning aytishicha, imom unga nisbat berilgan narsaga javob berdi: "Ar-Roziyning o'quvchisi shayx Abdulhamid al-Xusravshohiy rohimahulloh edi. Imom Faxriddin haqida shunday deyiladi: U zotning fazilatlarini, ochiq ko'ngilligi, yaxshi muomalasi, islom diniga qayg'urishi karomiyalarning so'zlarini bekor qiladi, do'stimiz al-Xusravshohiy barcha fazilat sabablarini o'zida mujassam etgan, donishmand, dindor, dinga sodiq, solih o'tmishdoshlar yo'lidan yurgan solihlarning ulug'laridandir. U zot bilan goh sharqda goh g'arbda, goh Karkda, goh Misrda bo'ldik. Oxirgi marta 1255\653-yilda Shomda bo'ldik va shu yerda vafot etdilar, malik muazzom Isoning (Alloh uning ruhini muqaddas qilsin) qabri oldida Qosiunga dafn etildilar".

Allomaning tug'ilgan yili xususida ba'zi tarixchilar hijriy 543, ba'zilar 544-yil (milodiy 1148-yil)ni ko'rsatishadi. Imomning eng mashhur asarlari "Kitobi muhassal afkor al-mutaqaddimin val mutaaxxirin", "Hikmat ul-ishroq", "Asos ut-taqdis", "Lavomi' al-bayyinot", "Sharh ul - kulliyot", "Sharh ul-ishorat", "Mahsul" va "Mafotih ul-g'ayb" ("At-tafsir ul-kabir" deb tanilgan) asarlaridir. Ibn Xallikon ta'kidiga ko'ra: "U At-tafsir ul-kabir" asarida barcha tushunarsiz narsalarni to'plab yozdi, lekin asarni oxiriga yetkazolmadi, Shayx Najmiddin Ahmad ibn Muhammad uning asarini yanada boyitdi va 1326\727-yilda vafot etdi. Undan so'ng Shahobiddin ibn Xalil Damashqi ham undagi kamchiliklarni to'ldirdi va u 1241\639-yilda vafot etdi.

Faxriddin Roziyning qimmatli asarlaridan biri "Nafs va ruh ilmi hamda ular kuchlarining izohi" yoki "Axloq haqida fan", nomli asaridir. Alloma ushbu kitobida ikkita katta bob yozdi, unda "Nafs bu – ko'rinadigan va seziladigan narsa emas" ligini hamda "Nafs - tana emas" ligini tushuntirdi. To'rtinchi bob –





nafsning asl mohiyatini o'rganish bobida aytiladiki, har bir inson "men ketdim, men kelyapman, men eshitdim, men tushundim, men bajardim" deb ishora qiladigan narsa bu – sezilmaydigan va ko'rinmaydigan narsa. Bu ma'qul ya'ni mantiqqa to'g'ri keladigan narsa. Ma'qul narsaning ham bir nechta jihatlari bor. Birinchisi, nafs bittadir, agar u bitta ya'ni yagona bo'lsa, bu jismdan va uning har bir azosidan farq qilishi kerak. Beshinchi bob esa, nafs – tana emasligining isboti bo'yicha ilohiy kitoblardan o'rganilgan narsalar haqida.

Ushbu kitobning "Axloq ilmi" haqida yozilgan boshqa kitoblardan ajratib turuvchi afzalligi shundaki, kitob birinchi navbatda islomiy tamoyillar ustiga qurilgan. Tabiiy fanlar, psixologiya va anatomiyaga oid mavzularda esa Aristotel va Galen g'oyalariga asoslangan, chunki u masalalarni ilmiy yo'llar va ishonchli dalillar orqali o'rganadi. Uning mulohazalari naql ga qarshi bo'lmaydi. Naql va shariat orqali sahii bo'lgan narsalarni keltiradi, masalalarni hikmatli Qur'on va Rasuli akram (sollallohu alayhi va sallam)ning so'zlari soyasida izohlaydi.

Yuqorida aytganimizdek, kitob ikki qismga bo'lingan:

Birinchi qismda axloq ilmi bo'yicha umumiy tushunchalarni izohlaydi, mavjudotlar orasida insonning martabasini, birinchidan - tabiat va shahvat jihatidan mavjudotlarning qismlarga bo'linishi, ikkinchidan - yaratilish va borliq haqida, uchinchi - mukammallik va nuqson haqida tushuntiradi. Bu qismning mavzulari o'n ikki bobga bo'linadi. Yunonlik donishmandlar va tibbiyot sohasidagi tadqiqotchi olimlarning so'zlaridan, payg'ambar(s.a.v) rivoyatlari va Qur'oni Karim oyatlaridan dalillar keltirib, insoniyat ruhlarining darajalari, nafsning asl mohiyati, ruhiy quvvat hamda aqliy va hissiy lazzatlar haqidagi masalalarni sharhladi.

Ikkinchi qism esa o'nta bobni o'z ichiga oladi, unda shahvat va istak bilan bog'liq masalalar, pul va obro'-e'tiborga bo'lgan muhabbat va baxillikni davolash haqida, munofiqlik ya'ni riyo va uning darajalari, jismoniy itoat, xulq bilan bog'liq itoatkorlik haqida so'z boradi.

Xulosa qilib aytganda, Faxriddin Roziy salaflar kitoblaridan, ayniqsa, kitobning ikkinchi qismida, Imom G'azzoliyning "Ihyo-u ulum ad-din" (Din ilmlarni tiriltirish) asaridan foydalandi, qimmatli dalillarni keltirdi, qadimgi olimlarning ilmi va Qur'on ilmlari orqali masalalarni hal qilishga yo'llar ko'rsatdi. Shuning uchun ham bu kitob bizgacha yetib kelgan axloq ilmi haqidagi boshqa kitoblardan ustun turadi.

Adabiyotlar:

1. Турдиев, Б. (2024). JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб



муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).

2. Турдиев, Б. (2023). IBN SINONING HUQUQIY TA'LIMOTLAR RIVOJIDA QO 'SHGAN HISSASI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/3), 214-220.

3. Turdiyev, B. S. (2023). KONFUTSIYNING SIYOSIY- HUQUQIY TA'LIMOT RIVOJIGA QO 'SHGAN HISSASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(21), 519-522.

4. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.

5. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

6. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.

7. Sobirovich, T. B. (2023). MANIFESTATION OF CIVIL SOCIETY IN THE IDEOSPHERE OF UZBEKISTAN. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 89-92.

8. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. Harmony, 7(1), 08-16.

9. Turdiyev, B. S. (2022). INTERPRETATION OF UNIVERSAL VALUES IN ZOROASTRIANISM. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(7), 109-114. Sobirovich, T. B. Interethnic Harmony And Religious Tolerance- An Integral Part of The Ancient Traditions Of The Uzbeks.

10. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.

11. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.

12. Sobirovich T. B. Philosophical Dialectics of National and Universal Cultural Development //Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR). – 2021.



13. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.
14. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – 2020. – T. 3. – №. 8. – C. 122-126.

